

**Tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotida tutgan o‘rni**

***Soatova Rayxona Sadridin qizi***

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika va san’at fakulteti*

*Pedagogika yo‘nalishi talabasi*

[rayhonasoatova@gmail.com](mailto:rayhonasoatova@gmail.com)

***Annotatsiya:*** Mazkur maqolada tarbiya va uning turlari, tarbiyaning bugungi kundagi ahamiyati, shaxs kamolotida tutgan o‘rni haqida so‘z boradi.

***Kalit so‘zlar:*** Tarbiya, jamiyat, milliy mafkura, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasi, tarbiya turlari.

***Annotation:*** This article talks about education and its types, the importance of education today, its role in the development of a person.

***Key words:*** Education, society, national ideology, "Continuous spiritual education" concept, types of education.


***Аннотация:*** В данной статье говорится об образовании и его видах, значении образования сегодня, его роли в развитии человека.

***Ключевые слова:*** Образование, общество, национальная идеология, концепция «Непрерывного духовного образования», виды образования.

Jamiyat va inson taraqqiyotida tarbiya eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Yoshlarda Vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, bag‘rikenglik, mas’uliyatlilik, huquqiy madaniyat, tadbirkorlik, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish va ularni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli qarori asosida “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu konsepsiya 4 bosqichni o‘z ichiga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasiga asosan, umumiy o‘rta

ta'lim muassasalarining I — XI sinflari uchun “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Dinlar tarixi” fanlarini birlashtirgan holda “Tarbiya” fanini joriy qilish bilan bog‘liq tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-metodik ishlar kompleksini amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi va Oliy o‘quv yurtlarida ham “Pedagogika” ta’lim yo‘nalishi ochildi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. <sup>1</sup> Tarbiyaning quyidagi turlari turlicha tavsiflanadi va asosan quyidagii turlari mavjud:



**Aqliy tarbiya** o‘quvchilarni ilm-fan, texnika hamda texnologiya, ishlab chiqarish sohalarida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, bu bolalarda erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilishga asos yaratadi. Aynan bilimlilik, ilm olishga undash maqsadida Abdulla Avloniy quyidagicha fikr bildiradi: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir”.

---

<sup>1</sup> B.X.XODJAYEV Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.

**Iqtisodiy tarbiya** bolalarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish madaniyatini shakllantiradi. Agar jamiyatda iqtisodiy rivojlanish qancha yaxshi rivojlangan bo'lsa, uning tabiatga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'lar ekan. Iqtisodiy tarbiya va borada Forobiy quyidagi fikrlarni aytgan: "Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi". Shu sababli ham iqtisodiy tarbiya bolalarga kichikligidan berilishi maqsadga muvofiqdir.

**Ekologik tarbiya** bolalarda atrof-muhitga, ona tabiatga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, uni asrab-avaylashga xizmat qiladi. Ekologik tarbiya bugungi kunda eng muhim tarbiya turlaridan biridir. Sababi har yili dunyo bo'yicha 6-7 million gektar yer ishdan chiqmoqda. Yerning 3 sm qatlami tiklanishi uchun esa 300-500-yil kerak bo'ladi. Ana shunday holatlarning oldini olish uchun ham ekologik tarbiya har bir insonga kichikligidan boshlab berilishi lozim.

**Oila tarbiyasi** bu oilada ota-onalar, vasiy shaxslar tomonidan bolalarni tarbiyalashdir. Oila tarbiyasi yosh avlodni har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash va hokazolar. Oila qanchalik tartibli, uning a'zolari o'rtasidagi munosabat samimiy bo'lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi.<sup>2</sup>

**Estetik tarbiya** jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak beruvchi muhim unsur bo'lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtira oluvchi kuchdir. Estetika o'zi nima?

---

<sup>2</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila\\_tarbiyasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila_tarbiyasi)

**Estetika** (qadimi yunoncha: *αἴσθησις*; nemischa: *Ästhetik* - "his", "tuyg'u") olamning hissiy qabul qilinishini tadqiq etuvchi fandır. Estetika san'at, madaniyat va tabiatning subyektiv qabul qilinishini o'rganadi. Estetika falsafaning aksiologiya sohasiga kiradi. "Estetika" terminini nemis faylasufi A.Baumgarten (1714—1776) ilmiy muomalaga kiritgan. Estetikaning sinonimi sifatida go'zallik falsafasi, san'at falsafasi, badiiy ijod falsafasi iboralari qo'llanib kelingan. Keyingi paytlarda nafosatshunoslik yoki nafosat falsafasi atamaları ham estetikasi anglatadigan bo'ldi. Estetika o'z ichiga san'at estetikasi, tabiat estetikasi, texnika estetikasi, dizayn, sport estetikasi, turmush estetikasi, atrof muhitni go'zallashtirish va boshqalar sohalarni qamrab oladi.<sup>3</sup>

Tarbiyaning boshqa turlari ham yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar majmuyini anglatadi. Tarbiya nafaqat oila, maktab, o'quv tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo'libgina qolmay, uning yetakchi g'oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta, jurnallar, ijtimoiy tarmoqlar orqali singdirilgan mafkurani o'z ichiga oladi. Zero, tarbiya ta'limga nisbatan kengroq bo'lgan tusunchadir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. <https://lex.uz/ru/docs/-4676839>
2. B.X.XODJAYEV Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
3. X. Ibragimov, sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi., T., "Fan va texnologiya",2008. Masul muharrir:p.f.d, professor R.H. Jo'rayev
4. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi):O'qtuvchilar: M. X. Toxtaxodjayva, S Nishonova, J. Hasanboye, M. Usmonboyeva, S. Madyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov.

---

<sup>3</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Estetika>

5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila\\_tarbiyasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila_tarbiyasi)
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Estetika>